








Kompetensiya tizimi, amaliy va
nazariy tayyorgarlik holati






Kirish

Ushbu taqdimot pedagogik deontologiya sohasidagi kompetensiya tizimidagi tahlil va tavsiyalarga bag'ishlangan. Bu taqdimotda ushbu sohadagi kompetensiya tizimi va tayyorgarlik holatini ko'rib chiqamiz. Qani boshladik!







Pedagogik kompetentlik ta'rifi



Pedagogik kompetentlik o'qituvchilik faoliyatini sifatli tashkil etilishini ta'minlovchi omil sifatida qaraladi. Bugunda o'qituvchining kompetentligi qaysi mezonlar bilan belgilanishini o'rganish muhim bo'lmoqda. Zamonaviy jamiyat ta'lim tizimi oldiga yuqori malakali, intiluvchan,raqobatbardosh, tashabbuskor, ma'naviy va jismoniy sog'lom shaxslarni tarbiyalab berish talabini qo'yemoqda. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanadarivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida "yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, oliy ta'lim muassasalarida kompetentli ilmiy pedagogik kadrlar zaxirasini yaratish" vazifasi belgilandi[1]. Kompetentli pedagog - u kim? Uning shakllanish jarayoni qanday kechadi kabi savollar tug'iladi. Shu nuqtai nazardan "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalar mazmun mohiyatini aniqlashimiz muhimdir.







Pedagogik deontologida kompetensiyaning ahamiyati

Har qanday o'qituvchi ham "kompetentlik" nimani anglatishini va u"kompetensiya"dan nimasi bilan farq qilishini bilavermaydi.

"Kompetentlik" tushunchasi pedagogning ma'lumoti, ko'nikmasi, qobiliyati va tajribasini o'z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, uning ma'lum bir ish turini bajarish qobiliyati hisoblanadi. Aslida, ikkala atama o'xshashdir. Kompetensiya bilimlarning umumiyligi va ularning odamlarda mavjudligini angatsa, kompetentlik - bu bilimlarni ish jarayonida ishlatish darajasini anglatadi.







Kompetensiya tizimi



Kompetensiyalar ta'rifiga bir qancha yondashuvlar mavjud:


- - Amerikancha yondashuvda kompetensiyalar xodimlarning xulq-atvorinamunasi sifatida ko'rib chiqiladi. Agar xodim zarur ko'nikma va bilimlarga egabo'lsa, yaxshi natijalarni namoyish etadi.
- - Yevropacha yondashuvda kompetensiyalar ish vazifalari va kutilgan ishnatijalarining tavsifi, ya'ni qabul qilingan standartlarga muvofiq harakat qilishqobiliyati sifatida ko'rildi.






Professionallik va kompetentlik

Professionallik va kompetentlik bir-biriga o'xshash bo'lsada, har xil ma'noga ega bo'lgan atamalardir. Professionallik deganda nafaqat ma'lum bilimlar, balki mehnatga bo'lgan munosabat, ishning o'ziga xos xususiyatlari tushuniladi. Rivojlangan kompetensiyalar darhol seziladi, chunki professional pedagog o'z ko'nikmalarini rivojlantirishga harakat qiladi, muayyan maqsad va natijalarga erishishga intiladi, ishchan qadriyatlar ishlab chiqaradi va bular odatda ish jarayonining standartiga mos keladi. Kompetentlik esa biroz murakkab mazmunga ega, sababi, nafaqat bilimlarning mavjudligini, balki shu bilan birga ularni qo'llash qobiliyatiniham taqozo etadi. Kompetentlik faqat keng qamrovli baholash va kuzatish paytida aniqlanishi mumkin.





Professionallik va kompetentlik

Professionallik va kompetentlik tushunchalari umumiylar xususiyatlarga ega. Shuni ta'kidlash kerakki, har doim ham belgilangan talablar va standartlarga to'liq mos keladigan odamlar chinakam professionallar bo'lavermaydi, sabab, ba'zilari bilimlarni amalda qanday qo'llashni bilishmaydi, demak, bunday pedagogik faoliyat samarasiz bo'lib qolaveradi. Kasbiy pedagogik kompetensiyalar uchta turga bo'lingan:



- Maxsus pedagogik kompetensiya
- Ijtimoiy pedagogik kompetensiya
- Shaxsiy pedagogik kompetensiya






Maxsus pedagogik kompetensiya


Maxsus pedagogik kompetensiya - pedagogik faoliyatni zarur darajada amalga oshirish uchun yetarli ma'lumotga ega bo'lish. Bundan tashqari, pedagogning o'z kasbiy darajasini munosib baholay olishi va mutaxassis sifatida o'z rivojlanishini belgilash qobiliyati ushbu turga bog'liq



Ijtimoiy pedagogik kompetensiya

Ijtimoiy pedagogik kompetensiya - ijtimoiy vakolat darajasi pedagogning hamkasblari bilan munosabatlarni samarali qurishi, bиргаликдаги harakatlarni rejalashtirish qobiliyatini belgilaydi. Samarali aloqa ko'nikmalari, pedagogic madaniyat va ish natijalari uchun javobgarlik - bularning barchasi ijtimoiy pedagogic kompetensiya tushunchasiga kiritilgan





Shaxsiy pedagogik kompetensiya

Shaxsiy pedagogik kompetensiya - bu pedagogik ishni oqilona tashkil etishqobiliyati bo'lib, vaqt ni boshqarish, shaxsiy o'sishga intilish uning asosiy tarkibiy qismlaridir. Shaxsiy pedagogik kompetensiyaning yuqori darajasi ega bo'lgan ishchilar charchashga kamroq moyil, vaqt bosimida ishlashga qodir








Kompetentlik qanday shakllanadi?

O'qituvchining kompetentligini shakllantirish uchun asosiy narsa bu maxsus kasbiy ta'lmdir.

Kelajakda amaliyotda olingan bilim va ko'nikmalar boshlang'ich kompetensiya darajasini to'ldiradi. Bularning barchasi formula shaklida taqdim etilishi mumkin:


Kompetentlik=Bilaman+ Qila olaman+ Istayman+ Men qilaman.





Xulosa

Xulosa qilib aytganda, kompetentlikni shakllantirish bosqichma-bosqich va uzliksiz jarayondir. U oliy ta'lim muassasasida boshlanadi va ish joyida tajribali ustozlar nazorati ostida davom etadi. Shuni unutmaslik kerakki, yuqori kasbiy kompetentlik nafaqat bilim darjasи, balkи xodimning amaliy ko'nikmалари, tajribasi va shaxsiy fazilatlari hamdir.





E'tiboringiz uchun rahmat

**Savollaringiz bo'lsa
berishingiz mumkin.**